

O'QUVCHILARDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Namangandavlat pedagogika instituti magistranti

Raimjanova Gulnozaxon Muhiddin qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari, innovatsion metodlari hamda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. O'qish savodxonligini shakllantirishda faol va strategik o'qish metodlari, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar hamda xalqaro baholash dasturlari talablariga mos yondashuvlarning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, faol o'qish, strategik o'qish, tanqidiy fikrlash, raqamli ta'lim, PIRLS.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

*Магистрантка Наманганского государственного педагогического
института*

Раймджанова Гульнозахон Мухиддин кизи

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные педагогические подходы, инновационные методы и использование цифровых образовательных инструментов для развития навыков чтения у учащихся. Научно и теоретически анализируется важность активных и стратегических методов чтения, заданий, развивающих критическое



мышление, и подходов, отвечающих требованиям международных программ оценки, в формировании навыков чтения.

Ключевые слова: навыки чтения, активное чтение, стратегическое чтение, критическое мышление, цифровое образование, PIRLS.

MODERN APPROACHES TO DEVELOPING READING LITERACY IN STUDENTS

Master's student of the Namangan State Pedagogical Institute

Raimjanova Gulnozakhon Muhiddin qizi

Annotation: This article discusses modern pedagogical approaches, innovative methods, and the use of digital educational tools to develop reading literacy in students. The importance of active and strategic reading methods, tasks that develop critical thinking, and approaches that meet the requirements of international assessment programs in the formation of reading literacy is scientifically and theoretically analyzed.

Keywords: reading literacy, active reading, strategic reading, critical thinking, digital education, PIRLS.

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, o'qish savodxonligi shaxsning bilim olish jarayonidagi asosiy kompetensiyalaridan bo'lib, u nafaqat matnni texnik jihatdan o'qish, balki uni tushunish, tahlil qilish, baholash va real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shu sababli bugungi kunda o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolish o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini yetarli darajada



shakllantirmaydi. Bu esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni ta'lim amaliyotiga joriy etishni taqozo etadi[2].

O'qish savodxonligi tushunchasining pedagogik mohiyati quyidagicha izohlash mumkin. O'qish savodxonligi tushunchasi pedagogik va psixologik adabiyotlarda keng talqin etiladi. Xalqaro tadqiqotlarda (jumladan, PIRLS) o'qish savodxonligi — bu shaxsning yozma matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, mazmunini tahlil qilish va o'z fikrini asosli ifodalash qobiliyati sifatida e'tirof etiladi[5].

Pedagogik nuqtayi nazardan o'qish savodxonligi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- matn mazmunini tushunish;
- asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajratib olish;
- axborotni tahlil qilish va xulosa chiqarish;
- matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish.

Mazkur ko'nikmalarni va malakalarni shakllantirish o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va ta'lim sifatining yuqori bosqichlarga chiqishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishi dars mashg'uloti samaradorligini oshiradi. Ana shunday yondashuvlardan biri

“Faol o'qish”- bu zamonaviy ta'limning muhim yondashuvlaridan biri bo'lib, bunda o'quvchi matn bilan passiv emas, balki faol subyekt sifatida ishlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda savol berish, muammoli vaziyatlarni aniqlash va matnni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi[1].

“Faol o'qish” yondashuvi jarayonida quyidagi metodlardan samarali foydalanilsa dars mashg'ulotlarining zamonaviy talablariga mos xolda bo'ladi.:

- matn bo'yicha savollar tuzish;
- asosiy g'oyalarni belgilash;
- fikrlar xaritasi tuzish;



matnni qisqacha qayta hikoya qilish.

Strategik o'qish metodlari

Ushbu metodlar orqali o'quvchi:

o'qishdan oldin maqsad qo'yadi;

o'qish jarayonida o'z tushunishini tekshiradi;

o'qishdan so'ng xulosalar chiqaradi.

Natijada o'quvchi o'z o'qish faoliyatini ongli ravishda boshqarishni o'rganadi. Raqamli texnologiyalarning darslarda o'qish savodxonligini rivojlantirishdagi o'rnini quyidagicha izohlash mumkin[3].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limga joriy etilishi o'qish savodxonligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron darsliklar, interaktiv matnlar, audio va video materiallar o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu metod va yondashuvlardan tashqari raqamli platformalar orqali o'quvchilarning:

matnni turli darajalarda o'qish;

lug'at bilan interaktiv ishlash;

test va topshiriqlarni avtomatik baholash imkoniyati yaratiladi.

Bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS, o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim mezon sifatida qaralmoqda. Ushbu dastur talablari asosida tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarning matnni tushunish va tahlil qilish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. PIRLS tipidagi topshiriqlarni ta'lim jarayoniga joriy etish dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilim xamda malakalarini oshirish ularda raqamli texnologiyalarga bo'lgan qiziqish xamda xoxishlarini oshiradi ularning bilim va malakalarini boyitishga xizmat qiladi bundan tashqari



o'quvchilarning funksional savodxonligini oshiradi;
xalqaro standartlarga mos tayyorgarlikni ta'minlaydi;
ta'lim sifatini baholash imkonini beradi[4].

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda faol va strategik o'qish metodlari, raqamli texnologiyalar hamda xalqaro baholash dasturlari talablariga mos yondashuvlarning uyg'unligi yuqori natijalarga olib keladi. Zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va bilimlarni hayotda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Abdullaeva B. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2023. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020. – B.124-126.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2020. – B.44-45.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2022. – B.221-224.
4. Karimova G.K. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. "*O'quv qo'llanma*". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – B.125-128.
5. Mullis I.V.S., Martin M.O. PIRLS 2021 Assessment Framework. – Boston College, 2021. – B.254-255.